

 Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

2/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/2 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехruz Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна - педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Полвонов Козимбек	
ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЖАНУБИЙ ШАҲАРЛАРИ ТОПОНИМИГА ОИД	
МАЪЛУМОТЛАР	10-15
<i>Xadjamuratova Matlyuba</i>	
МАКТАВГАЧА ТА’ЛИМДА БОЛАЛАРНИ ИЖТИМОИY ХИМОЯ QILISHGA INNOVATSION	
YONDOSHUVNING DOLZARBLIGI	16-21
Шовкатов Шокир Шовкат ўғли	
АБУЛ-ЮСР ПАЗДАВИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР	22-31
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i>	
О'zbekiston RESPUBLIKASIDA SUD QONUNCHILIGIGA KIRITILGAN O'ZGARISHLAR VA	
ULARNING AHAMIYATI	32-36

Пардаев Асрор	
ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ АҲОЛИСИНИ ХАЛҚ ИСТЕМОЛИ ВА ОЗИҚ-ОВҚАТ	
МАҲСУЛОТЛАРИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ	37-42

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Умурзақова Мўътабархон Нодир қизи	
ЖАХОНДА ТИББИЙ СУФУРТА ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ	43-52

Рахманов Зафар	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ДЕПОЗИТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ	
ТЕНДЕНЦИЯЛАРИНИ БАҲОЛАШ	53-62

Аминов Фазлитдин Баҳадирович	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ЭКОНОМИКЕ	
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	63-70

Курбонова Шаҳриноз Авазхоновна	
ИҚТИСОДИЁТНИ ДИВЕРСИФИКАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА АСОСИЙ ВОСИТАЛАР	
ТАҲЛИЛИНИ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ	71-81

<i>Azimova Hulkar Egamberdiyevna</i>	
KREDIT PORTFELINI SAMARALI BOSHQARISHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI	82-87

Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
LOGISTIKA XIZMATLARINI KO'RSATISHDA BUYUMLAR INTERNETI (INTERNET OF	
THINGS)DAN FOYDALANISH	88-93

Сайдов Сарвар Хайруллоевич	
ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИЛАРИДА БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛАНТИРИШ	
БОРАСИДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ	94-104

Сержанов Аймурат Медетбаевич	
ХАЛҚАРО АМАЛИЁТ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА РАҶАМЛИ БАНКЛАР ХИЗМАТЛАРИНИ ЯРАТИШ	
ЗАРУРИЯТИ	105111

Туробов Шерзод Алишерович, Ибодуллаев Зафар Ибодуллаевич	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ХОРИЖ	
ТАЖРИБАСИ	112-119

<i>Daniyarova Feruza Baxriddinovna, Chinorova Shahodat Mansur qizi</i>	
O'zbekiston IQTISODIYOTIGA XORJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH	
YO'LЛАRI	120-126

Temirova Feruza Sagdullayevna

XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA BRENDGA SODIQLIK 127-132

Sharipova Shaxzoda Xasanovna

YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM MADANIYATINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI 133-138

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Alimova Shahniza Hamidovna

НОГИРОНЛИГИ БОР ЁШЛАР - АЛОҲИДА ХУСУСИЯТГА ЭГА ИЖТИМОЙ-ДЕМОГРАФИК ГУРУХ СИФАТИДА 139-147

Asrakulova Adiba Nabieva

“ЁШЛАР ВА БИЗНЕСНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ЙИЛИ” НИНГ ҚАБУЛ ҚИЛИНИШИ ТАДБИРКОРЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ 148-154

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Teshabayeva Dilfuza Muminovna

LEXICAL PROBLEMS OF TRANSLATING THE NAMES OF NEW PHENOMENA IN MASS MEDIA 155-160

Rustamov Ilhom Tursunovich, Inog'mjonova Robiya Rustamjon qizi

INTERFERENSIYA HODISASINING TILDA AKS ETISHI XUSUSIDA OLIMLARNING TADQIQOTLARI VA QARASHLARI 161-165

Abdikhamidova Sevinch Obidjon kizi

PROBLEMS FACED IN TRANSLATING PROPER NOUNS 166-170

Djurakulova Elmira Suyunova

SHOYIM BO'TAYEV ROMANLARIDA BADIY XRONOTOP VA MIFOLOGIK TALQIN 171-177

Dalieva Madina Khabibullaevna

THE ROLE OF BLENDING THEORY IN POLYSEMY AND METAPHOR 178-183

Жўраева Ирода Ахмедовна

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК АНТРОПОНИМИК ЛУФАТЛАР ТИПОЛОГИЯСИ 184-189

Iminova Shahnoza-Begim Bahodirovna

INGLIZ TILIDA INSONNING IJOBIY AQLIY XUSUSIYATLARINING IFODALOVCHI BIRLIKLARNING KONSEPTUAL, LINGVO-MADANIY XUSUSIYATLARI 190-193

Irgasheva Shoxida Sadreddinovna

INTERNET DISKURSIDAGI IQTISODIY NEOLOGIZMLARNI TARJIMA QILISH XUSUSIYATLARI 194-200

Tursunova Zarina Farxodovna

LINGVISTIKADA EMOTLARNI O'RGANISHGA ZAMONAVIY YUNDASHULAR (INGLIZ TILI ASOSIDA) 201-205

Satibaldiyev Erkinjon Kamilovich

PARADIGMATIC SOUND INTERFERENCE IN THE ENGLISH SPEECH OF TURKOPHONES 206-212

Radjabova Hafiza Shukrulloevna

INGLIZ VA O'ZBEK TERMINOLOGIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI 213-220

Avezova Dilovar Salimovna

TAXALLUSLARNI O'RGANISHNING NAZARIY JIHATI 221-225

<i>Alikberova Kamila Adhamovna</i>	
A CRITICAL ANALYSIS OF LANGUAGE USE AND LANGUAGE ACQUISITION	226-232
<i>Rakhmatova Bahara Ibodulla qizi</i>	
THE ROLE OF LEGAL DISCOURSE IN MODERN LINGUISTICS	233-238
<i>Valieva Nargizakhon Zamir kizi</i>	
COMPARATIVE ANALYSIS OF “KITE RUNNER” AND “A THOUSAND SPLENDID SUNS” BY KHALED HOSSEINI: THEMES, CHARACTERS, AND SOCIOPOLITICAL CONTEXT	239-244
<i>Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna</i>	
RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI KASB-HUNAR LEKSIKASINING STUKTURAL TASNIFI	245-251
<i>Alimova Kamola Tursunovna</i>	
CHALLENGES IN PREPARATION OF GUIDE TRANSLATORS	252-258
<i>Сейтимбетова Айкумар Пулатбаевна</i>	
ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	259-264
<i>Бегжанова Айсилуу Махмудовна</i>	
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА КОМПЬЮТЕР ЛИНГВИСТИКАСИ ТЕРМИНЛАР ТИЗИМИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	265-270
<i>Kubanova Ilmira Sharifovna</i>	
EXPLORING ABBREVIATED RAILWAY TERMINOLOGY IN ENGLISH: A COMPREHENSIVE ANALYSIS	271-275
<i>Azamjonova Sarvinoz</i>	
USE OF TOPONYMS IN MODERN FRENCH MEDIA	276-282

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Muxiddinova Dildora Muxiddinovna</i>	
O'ZBEKİSTONNING BOJXONA FAOLIYATIGA KİOTO KONVENSIYASINI JORİY ETİŞHNİNG HUQUQIY JİHATLARI VA JSTGA A'ZOLIKNING TA'SIRI	283-292
<i>Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li</i>	
SOLIQ NAZORATI HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH DAVLAT MOLİYAVİY NAZORATI INSTITUTİNİNG MUHİM OMİLİ	293-298
<i>Mustanov Ilxom Abdıvalijonovich</i>	
BANK QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY JİHATLARI	299-304
<i>G'oyibov Jo'rabek Choriyevich</i>	
YOSHLAR MIGRATSİYASI: MUAMMO VA YUTUQLAR TAHLILI	305-309

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Kuziyev Otobek Chuliyevich</i>	
TALABALARDA AXBOROT MODELLASHTIRISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING MUHİM UCH BOSQICHI	310-314
<i>Fattaxova Diloram</i>	
TIL O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN KOMPYUTER METODLARI	315-321
<i>Moydinova Elmira</i>	
APPLICATION OF FLIPPED LEARNING METHODS IN THE UNIVERSITY	

CLASSROOM	322-326
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i>	
ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIMDA 4K MODELI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA INTEGRATIV YONDASHUVNING MOHIYATI	327-333
<i>Doniyorova Gulrux Shoniyozovna</i>	
AVTOMOBILSOZLIK YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA DASTURIY VOSITALARNING AHAMIYATI	334-338
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i>	
RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMINING ASOSIY NAZARIYALARIDA TA'LIM OLUVCHINING ANALITIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	339-344
<i>Xo'jamberdiyeva Dilfuzা Ikramovna</i>	
DARSLIK BILAN ISHLASH O'QUVCHILARNING AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA	345-351
<i>Mamaraimov Bekzod Qodirovich</i>	
O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING QIDIRUV FAOLIYATIGA TAYYORLIGI	352-356
<i>Xudayberdiev Nurislam Nuralievich</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK MEXANIZMI	357-363
<i>Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich</i>	
TALABALARINING O'QUV FAOLIYATI VA ILMIY IZLANISHLARIDA SUN'IY INTELLEKT: IMKONIYAT VA CHEGARALAR	364-369
<i>Teshaboyeva Shahodat</i>	
ZAMONAVIY SHAROITDA SHAXSNING KASBIY HUQUQIY MADANIYATI	370-375
<i>To'rayeva Dilnoza Ismoilovna</i>	
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH USLUBIY TAYYORGARLIKNING BIR QISMI SIFATIDA	376-380
<i>Beknayeva Shaxnoza Vladimirovna</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION JARAYONLAR	381-388
<i>Dusyarov Salimjon Xudaymuratovich</i>	
HARAKATLI O'YINLAR ASOSIDA MAKTAB O'QUVCHILARIDA JISMONIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH	389-393

Mustanov Ilxom Abdivalijonovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi

BANK QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada bank qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlikning nazariy-huquqiy jihatlari tadqiq etilgan. Bank qonunchiliga oid huquqbazarlikning nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: bank tizimi, majburiyat, huquqbazarliklar, javobgarlik, moliyaviy javobgarlik, yuridik javobgarlik.

Mustanov Ilkhom Abdivalijonovich,
Independent researcher
Tashkent State Law University

THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF RESPONSIBILITY FOR VIOLATION OF BANKING LEGISLATION

Abstract: This article examines the theoretical and legal aspects of liability for violation of banking legislation. Proposals were made to improve the theoretical and legal foundations of banking law violations.

Key words: banking system, obligation, violations, responsibility, financial responsibility, legal responsibility.

Мустанов Ильхом Абдивалижонович,
Самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА НАРУШЕНИЕ БАНКОВСКОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА

Аннотация: В данной статье исследуются теоретико-правовые аспекты ответственности за нарушение банковского законодательства и теоретико-правовые аспекты ответственности за банковское законодательство. Даны предложения по совершенствованию теоретической и правовой базы правонарушений, связанных с банковским законодательством.

Ключевые слова: банковская система, обязанность, нарушения, ответственность, финансовая ответственность, юридическая ответственность.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI2Y2024N43>

Hozirgi zamonda jahonda bank tizimi umum qabul qilingan tizim bo'lib, ikki pog'onali bank tizimidan iboart va davlat markaziy banki va tijorat banklari tarmog'ini o'z ichiga oladi.

Bank tizimi deganda, u yoki bu davlatda muayyan bir tarixiy davrda mavjud bo'lgan turli shakldagi banklar va bank institutlarining o'zaro bog'liq bo'lgan majmui tushuniladi. Demak, har qanday davlatda bank instituti o'zi yolg'iz mavjud bo'lmasdan, balki banklarning faoliyatini nazorat qiladigan markaziy organ sifatida markaziy banklarning mavjud bo'lishi majburiy hisoblanadi. Chunki, davlat banklarni faqat davlat organiga tenglashtirilgan institut – markaziy bank orqali boshqarishga harakat qiladi.

Banklarning yuridik tabiatini quyidagi xususiyatlarda ifodalanadi: banklar – foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan tijoratchi yuridik shaxs hisoblanadi; banklar – mult shakliga ko'ra davlatga qarashli, xususiy, chet el kapitali ishtirokidagi bank va chet el banklari sifatida faoliyati yuritishi mumkin; banklar – alohida toifadagi faoliyat turi bo'lganligi sababli vakolatli organdan litsenziya asosida faoliyat yuritadi; banklar – asosiy faoliyati kredit, moliya va bank operatsiyalarini amalga oshiradi; banklar – bevosita ishlab chiqarish savdo va banklar faoliyatiga xos bo'limgan xizmatlar bilan shug'ullanmaydi; banklar – yuridik shaxs sifatida barcha mulkiy va nomulkiy huquqdan foydanadi va javobgar bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 147-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi o'zining yagona moliya, pul va bank tizimiga egaligi belgilangan. Bundan kelib chiqadiki, O'zbekistonda banklar tizimi yagona va bir tizimga birlashtirilgan. Banklarning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, banklar ham turlarga bo'linadi hamda mazkur banklar jamlanib bitta tizimni tashkil etadi.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi bank qonunchiligining vazifasi – iqtisodiyotimiz ustuni bo'lgan banklar va ular bilan uzviy aloqador bo'lgan bank mijozlari tomonidan yo'l quylishi mumkin bo'lgan qonunbuzilishi holatlarini cheklashdan iboratdir. Banklar hamda bank mijozlari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qonun hujjatlari qoidalarining ijro etilmasligini, majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilmasligini, qonun normalarining buzilishlarini oldini olish bog'liq munosabatlar tartibga solinadi.

Avvalo e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan masal bu yuridik javobgarlik masaladir. Qayd etish lozimki, umuman fonda yagona javobgarlik tushunchasi mavjud emas. Faylasuflar javobgarlik deganda shaxsning jamiyat yoki boshqa shaxslar oldidagi burchli ekanligini nazarda tutadilar. Yuridik javobgarlik masalalari huquqning umumiyy nazariyasi va huquqning maxsus tarmoqlariga bag'ishlangan adabiyotlarda yoritilgan.

Bir guruh olimlar shunday fikr beradilar: "... yuridik javobgarlik - bu yuridik norma sanksiyasida ko'zda tutilgan shaxsiy, tashkiliy yoki mulkiy xarakterdagи cheklovlar shaklida ifodalanuvchi davlat majburlov choralarining huquqbuzarga nisbatan qo'llanilishidir" [1]. "Yuridik javobgarlik deb huquqbazarlikni sodir etgan shaxsga protsessual tartibda qonunda belgilangan majburlov choralarini qo'llashdir" [2].

A.B.Vengerov yuridik javobgarlik - bu jamiyatning huquqiy tizimini ta'minlovchi davlat majburlovi shakllaridan biri ekanligini ta'kidlab, unga shunday ta'rif beradi: "Yuridik javobgarlik - davlat organlari tomonidan qonunda belgilangan tartibda huquqbuzarga nisbatan uning uchun noxush bo'lgan oqibatlarni nazarda tutuvchi ta'sir etish choralaridir" [3].

Z.M.Islomovning fikricha, "... yuridik javobgarlik - bu sodir qilingan huquqbazarlik uchun shaxsning davlat-hokimiy xarakterdagи muayyan cheklovlarni o'tash majburiyatidir" [4].

X.T.Odilqoriev ham yuridik javobgarlikni ikki xil, ya'ni ijobjiy va retrospektiv ma'noda tushunadi. Ijobjiy ma'nodagi javobgarlik – mas'uliyatlilikdir, ya'ni shaxsning jamiyatdagi o'z

o'rnini, ijtimoiy taraqqiyotdagi rolini va jamiyat ishlaridagi o'zining ishtirokini chuqur anglab harakat qilishidir [5].

Bank qonunchiligining buzilishida banklar va ularning mijozlari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar o'rtaida o'zaro shartnomaviy munosabatlarda yuridik javobgarlikning asosi bo'lib huquqbuzarlik, aniqroq qilib aytganda kontragent oldidagi majburiyatlarni bajarmaganlik yoki kerakli tarzda bajarmaganlik uchun javobgarlik shartnoma bo'yicha javobgarlik masalalari quyidagi holatlarda vujudga keladi:

- valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda asossiz rad etish;
- bank tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun haqni o'z vaqtida to'lamaslik;
- naqd pul hamda naqd pulsiz xisob-kitob qoidalarining buzilishi;
- majburiyatlarni bajarish muddatlarining buzilishi va boshqa holatlar bo'yicha xo'jalik majburiyatlarining bajarilmaganligi natijasida kelib chiqadi.

Tadbirkorlik faoliyatini yuritish tartibini buzish shartnomadan tashqari javobgarlik xizmat qiladi. Bunday holatlarda quyidagicha javobgarliklar qo'llanilishi mumkin:

- moliyaviy jarimalarni qo'llash;
- tadbirkorlik faoliyati subektlari faoliyatini to'xtatib qo'yish;
- tadbirkorlik faoliyati subektlari faoliyatini tugatish.

Huquqshunos olim V.K.Mamutovning ta'kidlashicha, bank qonunchilagini banklar va xo'jalik yurituvchi subektlari tomonidan buzilishi yuzasidan kelib chiqadigan javobgarlik moddiy javobgarlik tushunchasi bilan chegaralanib qolmasdan, balki yanada boyroq va kengroq tushunchani anglatadi, chunki huquqbuzarning mulkidan qisman mahrum etish (neustoyka, jarima penya undirish, zararni qoplash) bilan bir qatorda, tadbirkorning subekt sifatidagi huquqlarini cheklaydi: litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki bekor qilish, bank hisob varaqlari bo'yicha operatsiyalarini to'xtatib turish, bankning muayyan xizmat litsenzisini olib qo'yish, qimmatli qog'ozlar chiqarishni taqiqlash va boshqa holatlarni keltirib chiqaradi [6].

Bu holatlar esa bank faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, bank o'zining mijozlari oldidagi va kreditorlari oldidagi majburiyatlarini bajara olmasligini keltirib chiqarishi mumkin.

Biroq, huquqbuzarlikning salbiy oqibatlari moddiy ko'rinishdagi javobgarlikni keltirib chiqaradi, masalan, muayyan xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanish huquqining cheklanganligi banklar, kredit hamda ularning mijozlari hisoblanish tadbirkorlik faoliyati subektlarining shubhasiz daromadlarining qisqarishiga olib keladi.

Huddi shu fikrni V. Shenbina ham qo'llab-quvvatlaydi. Uning ta'kidlashicha, xo'jalik yurituvchi subektlar javobgarlik yuzasidan moddiy ko'rinishda yo'qotishlar kabi salbiy oqibatlarni boshdan kechiradilar[7].

Yuridik adabiyotlarda bank qonunchilagini buzganlik uchun yuridik sanksiya tushunchasi hamda ushbu tushunchaning javobgarlik tushunchasi bilan o'zaro aloqadorligi to'g'risida yagona qarashlar mavjud emas.

Boshqalarga qaraganda qo'proq e'tirofga sazovor bo'lgan fikr mavjud – "Bu bank qonunchilagini buzganlik uchun javobgarlik deganda qonun yoki shartnoma normalarida nazarda tutilgan salbiy oqibatlarni boshdan kechirish hisoblanadi" degan fikrini ham nazariyachi olimlar ilgari surishadi. Buni tushunishda javobgarlik chorasi sifatida sanksiya, banklar va ularning mijozlari hisoblanmish fuqarolar hamda tadbirkorlik faoliyati subektlariga

nisbatan majburiy huquqiy ta'sir ko'rsatish choralari kabi javobgarliklar qo'llanilishi bilan bog'liq bo'lgan choralar nazarda tutiladi.

E.Xojievning ta'kidlashicha, o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra bank huquqiy munosabatlarida qo'llaniladigan javobgarlik choralari ham moliyaviy, ham iqtisodiy sanksiya sifatida tavsiflanishimiz mumkin. Shu bilan birga, ular qonun hujjatlarida nazarda tutilgan davlat majburlov choralari hisoblanadi, ya'ni yuridik harakterga ega bo'ladi. Ushbu sanksiyalarning moliyaviy mohiyati shundan iboratki, mazkur sanksiyalar qo'llanilganda banklar va ularning mijozlariga nisbatan qo'llanilgan sanksiyalar odatda pul ko'rinishida bo'ladi. Mazkur sanksiyalarning iqtisodiy mazmuni xo'jalik munosabtlari ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatlariiga ta'sir o'tkazishdan iborat.

Bank qonunchiligiga doir normalar buzilganda, zararni qoplash sifatidagi javobgarlik ham belgilanishi mumkin. Boshqa tomondan, zararni qoplash kabi moliyaviy sanksiyalar tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish tizimida nazarda tutilgan iqtisodiy huquq va manfaatlarni himoya qilishning bir ko'rinishi sifatida qaralishi mumkin.

Bank huquqiy munosabatlar subektlariga nisbatan huquqiy ta'sir choralari qo'llanilishining maqsadlari va funksiyalari. O'zbekiston Respublikasida ham bank tizimini erkinlashtirish va isloh qilish jarayonlari olib borilayotgan ushbu bosqichda asosiy maqsad: banklarimiz faoliyatini xalqaro bank amaliyoti andozalariga yaqinlashtirishdan, banklarning kapitalini ko'paytirgan holda, ularni xususiy lashtirish, banklar faoliyatida yangi zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va umuman banklar faoliyatining samaradorligi orqali iqtisodiyotning yuksalishiga va barqarorligiga erishishdan iboratdir.

Bank huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun normalarini hamda shartnomaviy majburiyatlarni buzganlik uchun qo'llaniladigan yuridik javobgarlikning maqsadlari uning funksiyalarida namoyon bo'ladi. Bank huquqiy munosabatlar sohasidagi yuridik javobgarlikka xos bo'lgan funksiyalarni aniqlash barobarida shundan kelib chiqish kerakki, bank huquqiy munosabatlar, eng avvalo, bank va mijoz o'rtasida moliyaviy operatsiyalarni olib borish, valyuta ayirboshlash, kreditlar berish va omonatlar qabul qilish hamda saqlash bank va mijoz o'rtasidagi shartnoma bo'yicha bank xizmati ko'rsatishning boshqa turlari yohud majburiyatlar bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda moliyaviy harakterdagi javobgarlik assoslari bilan bog'liq hisoblandi.

O'zbekiston Respublikasida bank qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik masalalari umumiyligi va maxsus yo'naliishlarda tartibga solinadi. Masalan, umumiyligi javobgarlik masalalari ya'ni bank qonunchiligidagi jinoiy huquqbuzarliklar masalalari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi normalari, bank qonunchiligidagi ma'muriy huquqbuzarlik masalalari O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi normalari, bank qonunchiligidagi intizomiy javobgarlik masalalari O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi normalari bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasida bank qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlikning maxsus tartibi ikki xil ko'rinishda bo'ladi:

birinchisi, banklar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga bank xizmatlari ko'rsatilganda buzilgan huquq va manfaatlarni yuzasidan bank va mijoz o'rtasidagi jarayonlar;

ikkinchisi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan qoidalar buzilganda yuzaga keladigan Markaziy bank va banklar (nobank tashkilotlar) o'rtasidagi jarayonlar.

Birinchi holatda bank va mijoz o'rtasidagi javobgarlikka doir munosabatlari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga asosan tartibga solinadi. Ikkinci holatda Markaziy bank va bank(nobank tashkilotlari) o'rtasidagi javobgarlikka oid munosabatlari "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respblikasining "Bank va banklar faoliyati to'g'risida"gi qonuni bilan tartibga solinadi.

Markaziy bank tomonidan bank va nobank tashkilotlarga qo'llaniladigan chora va sanksiyalar bank nazoratining bir shakli hisoblanadi va mazkur choralar orqali markaziy bank moliya-bank tizimida nosog'lom institutni reabilitatsiya qiladi yoki tugatadi.

Markaziy bank tomonidan qo'llaniladigan chora va sanksiyalarning maqsadi bank tizimining barqarorligini ta'minlash, omonatchilar va boshqa kreditorlarning manfaatlarini himoya qilish va bank qonunchiligi buzilganda javobgarlik muqarrarligini ta'minlashdan iborat.

Markaziy bank tomonidan qo'llaniladigan umumiy chora va sansiyalarga quyidagilar kiradi:

- 1) huquqbazarliklarni oldini bo'yicha ogohlantirish;
- 2) huquqbazarliklarni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatma;
- 3) bank operatsiyalarining ayrim turlarini to'xtatish;
- 4) bank operatsiyalarining ayrim turlari bo'yicha lizensiyani bekor qilish;
- 5) bank operatsiyalari bo'yicha litsenziyani chaqirib olish;
- 6) jarima.

O'zbekiston Respublikasida bank qonunchilagini buzganlik uchun javobgarlik masalalarini takomillashtirish yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir:

1. "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi qonunning 3-moddasida Markaziy bankning huquqiy maqomi belgilangan. Unga ko'ra Markaziy bank yuridik shaxs bo'lib, u davlatning mutlaq mulkidir va o'z xarajatlarini o'zining daromadlari hisobidan amalga oshiradi. Markaziy bank o'z vakolatlari hamda vazifalari doirasida davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa organlaridan mustaqil ravishda qarorlar qabul qiladi deb belgilangan. Ushbu moddada Markaziy bankning yuridik shaxs ekanligi, davlatning mutlaq mulki ekanligi va iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasa ekanligi belgilangan, ammo Markaziy bankning huquqiy maqomi ya'ni uning tashkiliy-huquqiy shakli aniq ko'rsatilmagan. Masalan, Markaziy bank davlat organi ekanligi yoki mustaqil yuridik shaxs sifatida uning tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilmagan. Ushbu holatda, bank qonunchiligi bo'yicha nizo kelib chiqqanda ya'ni Markaziy bank banklarga nisbatan chora yoki sanksiya qo'llaganda, banklar Markaziy bank ustidan sud tartibida shikoyat qilganda, ishlarning sndlarga taalluqligi masalasida tushunmovchilik kelib chiqadi. Ushbu turdag'i ishlar ma'muriy ishlar bo'yicha sudlar tomonidan yoki iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqilishiha munozara kelib chiqadi. Shu sababli, ushbu moddada O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining huquqiy maqomiga aniqlik kiritish lozim.

2. O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risidagi qonunning 9-moddasida Markaziy bank o'z vakolatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi hududida barcha jismoniy va yuridik shaxslar ijro etishi majburiy bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlari, agar hujjatlarning o'zida kechroq muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kirishi belgilangan. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunining 3-moddasiga ko'ra esa Normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul

qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat ekanligi belgilangan. Shuningdek, ushbu qonunning 6-moddasida normativ-huquqiy hujjatlarning turlari belgilangan bo'lib, ammo ushbu ruyxatda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank qabul qiladigan normativ-huquqiy hujjatlar nazarda tutilmagan. Bu esa o'z navbatida Markaziy bank qarori asosida qo'llaniladigan chora va sanksiyalarning qonuniyligi va adolatlilikiga ta'sir qo'rsatadi. Bundan tashqari, normativ-huquqiy hujjat sifatida Markaziy bankning qarori Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi qonunga ko'ra hujjatlarni tayyorlash, ekspertizadan o'tkazish, e'lon qilish va rasmiy nashrlarda chop etish kabi talablarga javob berishi lozim bo'ladi.

3. O'zbekiston Respblikasining Markaziy banki to'g'risidagi qonunning 71-moddasida Markaziy bankning qarorlari ustidan qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkinligi belgilangan. Ammo, ushbu moddada shikoyat qilish tartibi aniq ko'rsatilmagan. Masalan, ma'muriy tartibda yuqori turuvchi organga yoki sud tartibida Oliy sudga murojaat etish tartibi belgilanmagan. Shu sababli, ushbu moddada sud tartibida shikoyat qilish tartibini belgilash lozim.

4. Bugungi kunda bank tizimiga oid 50 ga yaqin qonun hujjatlar qabul qilingan. Shu sababli, ushbu hujjatlarning shaffofligi va ochiqligini ta'minlash, Markaziy bank tomonidan qo'llaniladigan chora va sanksiyalarni qo'llashda qonuniylikni ta'minlash, bank qonunchiligi normalarini qo'llash tizimini bixillashtirish va bank qonunchiligini tizimlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Bank kodeksini qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar/Литература/ References:

1. Теория государства и права.Учебник для юридических вузов и факультетов.М.:Норма-Инфра.1998. С.418.
2. Общая теория права. Учебник для юридических вузов../Под общ.ред.А.С.Пиголкина.М.:1996. С.319.
3. Венгеров А.Б. Теория государства и права. Учебник для вузов. М.:Юриспруденция. 2000. С.470
4. Исломов З.М. Общество. Государство. Право. (Вопросы теории). Т.: "Адолат", 2001. С.676.
5. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik // X.T.Odilqorievning tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2009.-B.538-539.
6. Маматув В.К. Хозяйственное право/ Киев 2002. -С. 522.
7. Шербина В.С. Господарське право України, Київ 1999. -С.163
8. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2007. – -916 b.
9. Odilqoriev X.T., I.T.Tulteev va boshqalar. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: "Sharq". 2009. – 592 b.
10. Билолхужаева Ш. Банковское право Республики Узбекистан.Учебник. Т.: ТДЮИ, 2009, -270 с.
11. Ли А., Билолхужаева Ш. Банковское право Республики Узбекистан: Учебное пособие. – Т., 2005.- 127 с.
12. Саттарова Н.А. Ответственность банков за нарушение обязанностей, предусмотренных законодательством о налогах и сборах. Дисс..кан.юр.н. Москва -2001. -С.141;
13. Веселовский П.С. Финансово-правовое регулирование ответственности за нарушение банковского законодательства. Дисс....кан. юр.н. Москва -2008.-С.175.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

Nº S/2 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масьулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).